

**RESPUBLIKA PAXTA SANOATI VA ANDIJON №3 PAXTA TOZALASH
ZAVODINING QISQACHA TARIXI****Solijonova Nazira**

Andijon mashinasozlik instituti
“Avtomobilsozlik” fakulteti “MSMSM”
yo‘nalishi 4 bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **PhD.Mamasharipov A.**

Respublikamiz paxta tolasi ishlab chiqvrish bo‘yicha dunyoda oltinchi, eksport qilishda ikkinchi o‘rinni egallab turibdi. Prezidentimiz “O‘zbekiston tashqi bozorda talab kata bo‘lgan mahsulot-paxta tolasining asosiy ishlab chiqaruvchisi va etkazib beruvchisidir” deb aytganlari hozirga kelib o‘z tasdig‘ini topdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mato ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan tolaning 60-80 foizi Evropaning etakchi davlatlariga diyorimizdan jo‘natiladi. Paxta tolasini jahon bozorida sotish hisobiga Respublika xazinasiga katta miqdorda valyuta tushmoqda.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, Respublikamizda ishlab chiqariladigan paxta tolasi dunyoning ko‘pchilik mamlakatlariga, shu jumladan AQSH, Gresiya, Rossiya,

Angliya, janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Gollandiya va Yaponiyaga eksport

qilinadi. O‘zbekiston respublikasi Liverpool (Angliya), Bermen (Germaniya) va

Gdansk (Polsha) birjalari kabi xalqaro nufuzli tashkilotning hamda paxta bo‘yicha

Xalqaro Konsultativ Qo‘mitaning to‘la xuquqli a‘zosi hisoblanadi. O‘zbekiston paxta

tolasining andozali namunalari xalqaro assosiasiyalari va arbitraj qo‘mitalar

tomonidan standart namunalar sifatida qabul qilingan.

Respublikamizda bir yilda etishtiriladigan paxtaning hajmi o‘rtacha 3,5-3,9

mln. tonnani tashkil etadi. Bu hajmdagi paxtani qabul qilish, saqlash va qayta ishlash

bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar majmuasini tashkil qilish, muvofiqlashtirish,

sohada yagona ilmiy – texnik siyosatni amalga oshirish, jahon bozori standartlari

talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish va iste‘molchilarga etkazib ber ish O‘zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish aksiyadorlik

uyushmasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Paxta sanoatini muhandis-texnik

xodimlar bilan ta‘minlaydigan “Paxtani dastlabki ishlash” kafedrasini xodimlari ham

Respublikamizni ushbu yo‘nalishdagi rivojlanish ravnaqiga etuk va malakali kadrlar

tayyorlash bilan o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Andijon №3 paxta tozalash zavodi 1904 1905-yillarda Andijon shaxrida Rossiya Xitoy banki tomonidan qurilib ishga tushirilgan. 1911-yilda mahalliy boy Temirbekov sotib olgan.

Rossiyada sodir bo‘gan inqilob natijasida korxonada davlat tasarrufiga o‘tkazilib, texnologik dastgox va uskunalar zamon talablari asosida davriy yangilanib, korxonada ishlab chiqarish quvvati yildan yilga o‘sib bordi. 1975 1980-yillar davomida Andijon №3 paxta tozalash zavodini ishlab chiqarish ko‘rsatgichlari bo‘yicha sobq Ittifoqda yuqori darajalarga erishib, taromoq soxa korxonalari o‘rtasida tashkil etilgan musobaqalarni bir necha yillar sovrindori bo‘lib kelgan.

Andijon №3 paxta tozalash zavodi Andijon shaxrini markazida joylashgan bo‘lib, paxta xomashyosini qayta ishlash chog‘ida atrof muhitning ekologik sharoitiga salbiy taʼsir ko‘rsatardi. Shu sababli zavodni shaxar xududidan tashqariga joylashtirishga qaror qilindi. 1994-yili “O‘z paxtatozalash sotish” Uyushmasi rahbariyatining moliyaviy qo‘llab quvvatlashi natijasida Oltinko‘l tumani Navoiy jamoa xo‘jaligi xududida yangi zavod qurilishi boshlandi. Zavodga Andijon №3 paxta tozalash zavodining jihozlari ko‘chirib o‘rnatildi va 1995-yilgi paxta hosilini qabul qilib, to‘la quvvat bilan ishga tushirildi.

Andijon №3 paxta tozalash zavodi O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo‘mitasining 1994-yil 24-noyabrda №711k PO sonli buyrug‘i asosida “Andijon paxta” aksionerlik jamiyatiga aylantirildi.

Zavod qurilishiga viloyatdagi barcha paxta tozalash zavodlarining muxandis texnik xodimlari, ishchi va hizmatchilari yordam berib, qurilish montaj ishlarini o‘z qo‘llari bilan bajardilar. Sobiq zavod muxandis texnik xodimlari yangi korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun zarur barcha turdagi mutaxassislarini tayyorladilar. Xozirda korxonada mahalliy yoshlar faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Lotin - Кирил, [03.05.2024 15:31]

Zavodning ishlab chiqarish tizimida ikkita 2SB 10 paxta quritgichi, 1XK rusumli tozalash tizimi, CHX 3M rusumli yirik iflosliklardan tozalash dastgoxlari joylashtirilgan. Bosh korpusda esa 4 dona 3XDD M rusumli tolaajratish dastgoxi, 4 dona 3OVP rusumli 3 silindrli tolatozalagich, momiq ajratuvchi 10 dona 5LP rusumli dastgoxlar o‘rnatilgan. Bundan tashqari xar bir batareyada momiqni tozalash uchun bittadan OVM F 1 tozalagichi o‘rnatilgan.

Ishlab chiqarilgan tola, momiq va ikkilamchi mahsulotlarni shibbalab preslash uchun DB 8237 rusumdagi uskunalarda amalga oshiriladi.

Tuman fermer xo‘jaliklari yetishtirgan Zavod tassarufida paxta xomashyosini qabul qilish va saqlash uchun zavod qoshida Maslaxat, Oltinko‘l va Qo‘sh tepasaroymaskanlari zaruriy kichik mexanizmlar bilan jihozlangan holda ishlab kelmoqda.

2005-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qishloq xo‘jaligini yuqori sifatli urug‘lik chigit bilan ta‘minlash to‘g‘risidagi qaroriga asosan korxonada xududida tuksizlantirilgan urug‘lik chigit tayyorlash markazlashgan sexi ishga tushirildi. Urug‘lik chigitlarni saralash, dorilash va qadoqlash uchun Ispaniya davlatining “Yubus” firmasining dastgox va uskunlari o‘rnatildi.

Korxonani rekonstruksiya qilish natijasida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, sifat ko'rsatgichlarini yaxshilash, mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishchi hizmatchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish ko'zda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Bobadjonov M.A, Gapparova M.A. TABIIY TOLALARNI DASTLABKI ISHLASH o'quv qo'llanma Toshkent 2001-yil.

2 "Andijonraxtasanoatsotish" uyushmasi ma'lumotnomasi.